

YOSHLARDA SUITSIDAL XOLATLARINING ASOSIY SABABLARI

M.Maxsudova

Namangan davlat universiteti Psixologiya kafedrası v.b.professori

R.Qurbonova

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada suitsid shaxs axloqining anomal turi sifatida ko'rib chiqilgan. Suitsidal xulq-atvor muallif tomonidan tahlil etilib, ayniqsa, o'smirlari orasida uchrab turadigan suitsidal urinishlarni sodir etishga asos bo'uvchi xavfli omillar sanab o'lgan.

Tayanch so'zlar: suitsid, shaxs, o'smir, suitsidal xavf, omil, psixologik xususiyat, depressiya, alturist, anomaniya.

Hozirgi zamon ilm-fan oldidagi turgan katta muammolardan biri o'smirlarda uchrayotgan suitsid xolatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak bu - nafaqat yurtimizda balki butun jahondagi global muammolardan biriga aylanib ulgurganini sezishimiz mumkin, bu xolatning sabab va oqibatlarini, jamiyatga yetkazayotgan zararlarini fransiyalik mashhur sotsiolog Emil Dyurkgeym "Suitsid" asarida quyidagicha izohlab bergan: jamiyat hayotida sodir bo'ladigan turli inqirozlar, suitsid xolatini oshishiga olib keladi. Shu bilan bu inqirozlar to'liqsimon harakatga egadir. "Shunday to'liqlardan biri Yevropada 1948-yildagi inqilobdan keyin sodir bo'lgan. Xususan Germaniyada 1866-yildagi voqealardan keyin sodir bo'lgan bo'lsa, shunday to'liqinni Fransiyada 1860- yilda ko'rish mumkin. Angliyada 1868-yilda ko'zga tashlana boshlagan". Qizig'i shundaki, jamiyat qancha boy bo'lsa, shuncha ruhiy inqiroz sari yo'l oladi. Bu fakt hozir ham deyarli o'z kuchida qolmoqda. Masalan uning tadqiqotlariga ko'ra "Fransiyada kapitalizm rivojlangan sari, o'z joniga qasd qilishlar soni ham ortib bormoqda". Umuman olganda suitsidning 3 ta turi mavjud bular: alturistik, egoistik, anomiya. Alturizm(frans.altrusme, lot.alter-boshqadan) -axloqiy tushuncha, uning negizida boshqa kishilarga xizmat qilish, ularning baxt saodati uchun o'z shaxsiy manfaatlarini qurbon qilish yotadi. Suitsidning alturistik turi bu insonning e'tiqod, millat, davlat, tabaqa, jamiyat va yoki guruhlar uchun o'zini qurbon qilishidir. Bu yerda alohida insonning hayoti umumhayotini yaxshilash uchun qurbon bo'ladi Ikkinchi toifa bo'lmish egoistik suitsid bu insonning o'z hayolida u shaxs sifatida jamiyatga ko'p narsa beryabdi, jamiyat unga berayotganiga qaraganda. Mana shu ruhi tushkunlik uning hayotini fojeaviy tugatishiga sabab bo'lishi mumkun. Eng mavhum va tushunarsiz suitsidning anomiya turidir. Bu insonning real imkoniyatlardan ko'proq bo'lgan narsaga ega bo'lish fikriga kelgandan keyin

ko`pincha sodir bo`ladigan suitsiddir. Bunda inson absurt xolatiga tushib qoladi va yashash u uchun ortiqcha mashg`ulotday ko`rinadi.[22,1] Masalan hozirgi zamonimizning “iste`molparast”lik kasalligiga chalingan insonlarda ham, shunday psixologiya dominantlik qilmoqda desak xato bo`lmaydi. Sababi Dyurkgeym aytganidek bizda iqtisodiy rivojlanish bilan parallel tarzda ehtiyojlarimiz ham o`sib bormoqda. Lekin afsuski barcha ehtiyojlarni normalarga muvofiq qondirishga ma`lum qiyinchiliklar vijudga keladi. Mana shunday xolatlarda inson tushkunlikga tushishi mumkin. Va u uchun endi yashashdan ma`no qolmaydi. Mana shunday inqirozli vaziyatlar girdobiga tushishi uni ushbu suitsidal xolatlariga olib kelishi mumkun, ehtimol. Ushbu muammoni idrok etishimiz yanada oson bo`lishi uchun suitsidga bag`ishlangan adabiyotlar va kuzatishlarimiz taxlilidan kelib chiqib ularni asosiy sabablarini guruxlarga bo`lib ko`rib chiqamiz :

1. *Dinsizlik yoki qadriyatlarining inqirozga uchrashi;* Oldingi odamlar o`zida oldingi ajdodlari yaratib ketgan qoidalar va diniy majburiyatlariga so`siz amal qilib, hech qanday ruxiy isyonlarsiz baxtli yashagan bo`lsa. Hozirgi zamonimizga kelib esa, ular o`z qadriyatlari, e`toqodlari va jamiyatdagi mavqeini o`zi hal qiladigan bo`ldi. Kapitalistik jamiyatning ko`p qismi dinsizdir oldingi jamiyatda din muhim bir funksiyani bajarar edi . U insonlarni birlashtirar, tinchlantirar va o`zini baxtli his qilishga asoslar topib bera olardi. Bilamizki, muqaddas islom dinimizda o`z joniga qasd qilish og`ir gunoh hisoblanadi. Dinini yaxshi anglagan inson arzimagan narsa uchun o`z jonidan vos kechmaydi. Lekin imoni zaiflar uchun biror sinov kelsa osmonu falakni boshiga ko`tarib dod-faryod qiladi. O`sha muammoni yechishga urinish o`rniga undan qochishga harakat qiladi, muammolardan qochish uchun o`z joniga qasd qiladi. Eng achinarlisi, o`zjoniga qasd qilishni barcha tashvishlardan qutilishning yagona yo`li deb bilishidadir. Vaholangki, bu uslub yechim emas, balki eng buyuk azob-uqubatning boshlanishidir. Aslida esa barcha muammolarning yechimi quyidagi oyati karimada o`z ifodasini topgan: Kimki Allohga taqvo qilsa, U unga (tashvishlardan) chiqish yo`lini (paydo) qilur.

2.*Ortiqcha orzu-havaslar.* Tobora rivojlanib borayotgan zamonimizda insonlar extiyojlari ham ortib bormoqda. Endilikda insonlar o`z ehtiyojlarini boshqara olmay qoldi va bunga turli reklamalar yordam berib kelmoqdalar. Bir so`z bilan aytganda insonlar endilikda istemolparastlik kasalligiga chalinib qoldilar. Ularning baxtsizligi o`z nafsi chegarasini kengayib ketganligidadir.

3.*Millat va oila institutlarining kuchsizlanishi.*

Hozirda ayrim insonlar uchun na millatni va na oilani qadri bor. Ular bunday tuyg`uni erkinlikni bo`g`uvchi zanjir deb atashmoqda. Hozirgi inson o`zidan mukammalroq bo`lgan qadaydir tizimning tarkibiy bir elementiligini tan olmaydi.

Shuning uchun ham millat qahramonlari borgan sari kamayib bormoqda. Buni oxiri esa baxtsizlikdir.

4. *Ommaviy axborot vositalari.* Internet tarmog`idagi, qo`l telefoni, kompyuterda o`ynaladigan turli o`yinlar, televidiniya orqali namoyish etilayotgan ayrim filimlardagi qahramonlarning o`zini o`ldirish sahnalari, kun yangiliklari berib boriladigan ko`rsatuvlarda suitsid xolatlari sodir etilganligi haqidagi ma`lumotlarning ochiq oydin efirga berilishi suitsidal xavfi bor yosh yoki ijtimoiy jihatidan o`xshash guruhlarda taqlidiy o`z joniga qasd qilishlarni chaqirishi mumkin [2,155]. Bu xolat “yuqish effekti” deb atlatadi. Ushbu axborot xujumi ularning inson ruhiyatiga, ayniqsa, hali shaxs sifatida to`liq shakllanib ulgurmagani, mustaqil fikriga ega bo`lmagan yoshlar ongiga salbiy ta`siri suitsid xolatlari ko`payishiga sabab bo`lmoqda. Jangarilik, qotillik, oxir zamon, turli tabiiy falokatlar, jamiyatdagi boshqa ko`plab salbiy xolatlar mavzusidagi filimlarni muntazam ko`radigan bola kelajakka ishonchini yo`qotib boradi va uning miyyasida shunday xolatlarni boshdan kechirmaslik uchun chora izlash bo`yicha psixologik jarayonlar uyg`ona boshlaydi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning o`sishi va o`spirinni depressiyasini kuchayishi o`rtasida to`g`ridan –to`g`ri bog`liqlik bor.[3,1]

Jahon sog`liqni saqlash tashkilotining ma`lumotiga ko`ra, har yili 4- 5mln nafar inson o`z joniga qasd qiladi. Eng xavotirlanarlisi yosh ko`rsatgichi tobora yosharib bormoqda, ya`ni suitsid xolati o`smirlar orasida ko`p uchramoqda. Malumki, o`smirlar hayotida, ba`zan o`zini yo`qotib qo`yadigan g`oyat murakkab jarayonlarga duch keladi. Bunday vaziyatlarda ruxan kuchli bo`lgan o`smirlar muvoffaqiyatli chiqa oladi. Ruhan kuchsiz, irodasiz hamda aynan ota-ona e`tiboriga muhtoj bo`lgan paytda ularning e`tiborsizligi ham ularning umidsizlikka tushib qolishi oqibatida suitsidga olib kelishi mumkin. O`smirlar orasida uchraydigan suitsidal xolatlariga eng ko`p quyidagilar sababchi bo`lishi mumkin.

- Muammoni hal qilishdan qochish, “chidab bo`lmas darajada qiyin hayotiy vaziyatdan qochish;

- Yakkalanish (insonni hech kim tushunmasligi, hech kim qiziqitmasligi va hech kimni qiziqitmasligi);

- Umidsizlik (o`z kelajagini aniq tasavvur eta olmasligi va pessimistik kayfiyatning doimiy ustunligi);

- Shaxsiy hayotidagi ziddiyat va agressiyaning ortib borishi;

- “Tabu” va undan chiqib keta olmaslik;

- Yolg`izlik, muvaffaqiyasiz sevgi;

- Xaqorat qilish, doimiy aloqada bo`ladigan insonlar tomonidan tahqirlanishi;

- Jazo yoki sharmandalikdan qo`rqish;

- ruxiy inqiroz;

- yaqin insonini yo`qotish (ruxiy siqilish);
- umidsizlik, foydasizlik haqidagi bayonotlar (mensiz yaxshi bo`lar edi, yo`q bo`lib qolsam edi, hech kimga keragim yo`q);
- qiyinchiliklarini bildirib qo`yish;
 - o`z qadrini anglatib qo`yish (faqat o`lsamgina qadringa yetishadi, afsuslanishadi);
- jinsiy zo`ravonlik;
 - ruhiy kasalliklar
 - o`z joniga qasd qilish xolatlari va hokazolar bo`lgan oiladagi tarbiya.

Ruhan sog`lom odamlarda o`zini o`zi o`ldirish sabablari ko`pincha o`tkir ruhiy-shikastlovchi vaziyatlar va kamroq kelib chiqishi turlicha bo`lgan cho`zilgan ruhiy tanglik yoki yashashning chidab bo`lmas shart-sharoitlari bilan bog`liq bo`ladi. O`zini o`ldirish istagi ruhiy-asab tizimi beqaror bo`lgan shaxslarda, ayniqsa, nevrotiklar va kuchli ta`sirlanuv-chi, kayfiyati o`zgarib turuvchi psixopatlarida ko`proq uchraydi. Shuning uchun yoshlar bilan ishlovchi pedagog va tarbiyachi yoki psixolog hamda jamoaning har bir a`zosi yoshlarning ruhiy xolati yoki xulq-atvoridagi ogish xolatini kuzatganda o`z vaqtida tegishli profilaktik chora ko`rishi yoshlar jamoasida sodir etilishi mumkin bo`lgan turli noxushliklarning oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дрюкгейм Э. Ўз жонига қасд қилиш - («Масхара») АСТ . 1897. С-12, 13, 14, 21-бетлар
2. Эшанаев Н. Ж. Суицид ва унинг ижтимоий психологик омиллари 2019. – 20, 21, 22-бетлар
3. Ҳакимова И.М. Девиант хулқ-атвор психологияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 79, 80-бетлар.